

**YOSHLAR VA VOYAGA YETMAGANLARNING RETSIDEV
JINOYATLARINING SODIR ETISHLARINI PROFILAKTIKASINI
AMALGA OSHIRISHNING AHAMIYATI**

*Murodov Jasur Alisher o'g'li
Maxmudov Xumoyun Nosir o'g'li*

KALIT SO'ZLAR: voyaga yetmagan, oila, sog'lom muxit, jamiyat, tarbiya, oilaviy muxit, voyaga yetmaganlar retsidevs jinoyatchiligi sabablari

Anotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish faoliyatining tushunchasi, huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlar bilan ishlashdagi muammo va kamchiliklar, shuningdek ayrim turdagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir kator takliflar, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati buyicha boshka xorijiy davlatlarning ilg'or xorijiy tajribasi xamda milliy konunchiligimizdan farkli va o'xshash tomonlari, shuningdek, yukorida keltirib o'tilgan jixatlardan foydalangan xolda ushbu faoliyatni takomillashtirish yunalishlari yoritilgan.

ANNOTATION: In this graduating moral work, the followings are described the concept of the inspector of prevention for teenage misbehavior, the types of teenage crime prevention, the ways of carrying out these types, their current situations prevention, the analysis of practice of working with teenagers and the similarities and contrasts with them in our national law system, with the approaches to develop the field by using the above-mentioned aspects.

O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining 6-moddasida huquqbuzarliklar profilaktikasining quyidagi to'rtta turi ko'rsatilgan: – huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi; – huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi; – huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi; – huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi¹.

Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi – huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishi sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish faoliyatidir.

Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda, ichki ishlar organlari, xususan profilaktika xizmatlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasi faoliyati – bu voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонуни// URL: <http://www.lex.uz>

huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning vujudga kelishi va sodir etilishi sabablarini hamda ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo'yicha amaldagi qonunlarda belgilangan vakolat doirasida amalga oshiradigan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy-profilaktik, tashkiliy-huquqiy va boshqa chora-tadbirlar tizimidir.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari umumiy profilaktikasida tarbiyaviy choralar, yakka (individual) profilaktikasida esa boshlang'ich profilaktika choralari yetakchi o'rin tutadi. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari umumiy profilaktikasi to'rtta asosiy sohada kechadi: oilada, maktabda, mehnat jamoasida va turar joyda.

Voyaga yetmaganlar bilan o'quv yurtlari, maktablarda huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish, uchrashuvlar tashkillashtirish, profilaktik usullardan foydalangan holda davra suhbatlari o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday tadirarni amalga oshirish jarayonida maktab jamoasi bilan hamkorlik voyaga yetmaganlarga yuksak ahloqiy xislatlarni shakllanishiga yordam beradi. Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda umumta'lim maktablari asosan profilaktika inspektorlarining ko'magiga suyanadilar.

Mehnat jamoasida esa yosh avlodni mehnatga bo'lgan, jamoaga bo'lgan mehrini kuchaytirish, uning to'liq a'zosi ekanligini his etishiga ko'nikma xosil qilishdan iboratdir. Bunda mehnat jamoalari ma'muriyatining o'rni beqiyosdir, voyaga yetmaganlarga mehnat qonunchiligiga binoan mavjud imtiyozlarni yaratishi, o'qish uchun sharoitini yetarli ta'minlashi jamoaga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi va qonunlarga hurmati yanada oshadi.²

Bu boradagi ishlarda ham mehnat jamoalari profilaktika inspektorlarining ko'magiga suyanishlari maqsadga muvofiqdir. Ya'ni ba'zi hollarda mehnat jamoalari bilan profilaktika inspektorlari huquqbuzarlik yoki muqaddam jinoyatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarni ishga joylashtirish, kasbli qilish borasida hamkorlik qiladilar.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida umumiy profilaktika turini amalga oshirishda profilaktik uslublaridan to'g'ri foydalana olish, asosan og'zaki, ko'rgazmali va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, shuningdek o'quv muassasa jamoalari, voyaga yetmaganlar bilan ishlashga ma'sul tashkilotlar bilan hamkorlikdagi faoliyatlari samarali tashkil etish zarurdir. Bu borada tashkilotlar bilan o'zaro fikr va ma'lumotlar almashishlari, shuningdek profilaktik faoliyatni olib borishda talab va ehtiyojlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Profilaktika xizmatlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi faoliyati – bu huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, ayrim toifadagi

² Хўжақулов С.Б. “Хуқуқбузарликлар умумий профилактикасини такомиллаштириш // док.дисс. афтреф// Т.: 2018.

shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlar ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati.³ Voyaga yetmaganlar o'rtasida umumta'lim maktablarida o'quvchilar davomatini tekshirish maqsadida "Davomat", voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida "Tig'", "Nazorat" kabi maxsus profilaktik tadbirlar amalga oshiriladi.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi – voyaga yetmaganlar o'rtasida g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy, pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatish doirasida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-profilaktik faoliyat.

Yakka tartibdagi profilaktika faoliyati asosan avval jinoyat, huquqbuzarlik sodir etgan va jinoyat sodir etishga moyil alohida voyaga yetmaganlarning ongida ijobiy hislatlarni shakllantirishga qaratiladi. Bunda profilaktika inspektorlari jarayonga psixologlarni jalb etishlari maqsadga muvofiqdir.

Profilaktika inspektorlari voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olishda yakka profilaktik choralarni tarbiyasi og'ir va huquqbuzarlik sodir etishga moyil voyaga yetmaganlarga, voyaga yetmaganlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yoshi katta shaxslarga va voyaga yetmagan farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan ota-onalar hamda ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan yuritiladi. Voyaga yetmaganlar, ularning tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan ota-onalarni profilaktik hisobga olish IIB boshlig'ining qarori, sud organlari ajrimi, tergov organlari qarorlari, xokimliklar qoshidagi "Voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar"ning qarorlari, asos bo'lishi mumkin. Profilaktika inspektorlari voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olishda yakka profilaktik choralarni tarbiyasi og'ir va huquqbuzarlik sodir etishga moyil voyaga yetmaganlarga, voyaga yetmaganlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yoshi katta shaxslarga va voyaga yetmagan farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan ota-onalar hamda ularning bosuvchi shaxslarga nisbatan yuritadi. Keltirilgan shaxslar profilaktik hisobga olinadi va ularga nisbatan voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarining oldini olish bo'limlarida profilaktik hisob yuritiladi, profilaktika inspektorlari esa ular haqidagi ma'lumotlarni yig'adi va TP pasportiga ularning ro'yxatini kiritadi.

Viktimologik profilaktika – huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyatidir .

³ Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонуни// URL: <http://www.lex.uz>

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi yakka tartibdagi profilaktika ishi – ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyati. Yakka tartibdagi profilaktika ishi quyidagi voyaga yetmaganlarga nisbatan olib boriladi:⁴

1. nazoratsiz yoki qarovsiz qolganlar;
2. g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etganlar;
3. ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida yoki ijtimoiyhuquqiy yordam ko'rsatish markazlarida saqlanayotganlar;
4. ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoki muntazam ravishda qatnashmayotganlar;
5. ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etganlar;
6. amnistiya akti asosida yoki qilmish yoxud shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi sababli yoki aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi yoxud yarashilganligi munosabati bilan, shuningdek voyaga yetmaganni jazo qo'llamasdan turib tuzatish mumkin deb e'tirof etilgan hollarda jinoiy javobgarlikdan ozod qilinganlar;
7. ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmaganlar yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetishga qodir bo'lmaganlar;
8. jinoyat sodir etganlikda ayblanib, qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi qo'llanganlar;
9. majburlov choralari qo'llangan holda jinoiy jazodan ozod qilinganlar;
10. jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinganlar, shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi sababli yoki aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan yoxud amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilinganlar;
11. hukmning ijrosi kechiktirilganlar;
12. shartli hukm qilinganlar, axloq tuzatish ishlariga yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa jazo turlariga hukm qilinganlar;
13. jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganlar yoki ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelganlar;
14. ruhiy kasallik tufayli sog'liqni saqlash muassasalarida hisobda turganlar va huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lganlar.

⁴ И. Исмаилов, М. Зиёдуллаев, Н.Исраилова, Ф.Азимова. Вояга етмаганлар назоратсизлиги ва ҳуқуқбузарликларининг олдини олиш: Ўқув-амалий қўлланма / Масъул муҳаррир И. Исмаилов. – Т.: Республика болалар ижтимоий мослашуви маркази

Yakka tartibdagi profilaktika ishi ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oilalarga nisbatan ham olib boriladi.

Yuqorida nazarda tutilgan holatlar, agar quyidagi hujjatlarda qayd etilgan bo‘lsa, yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borish uchun asos bo‘ladi:

15. voyaga yetmaganing yoxud uning ota-onasi yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarning voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan o‘ziga yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi arizasida;

16. sudning hukmi yoki ajrimida;

17. voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning yoki ichki ishlar organi boshlig‘ining qarorida;

18. voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi muassasalarga voyaga yetmaganlarni joylashtirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarda;

19. voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organ yoki muassasa rahbari shikoyatlar, arizalar yoki boshqa xabarlarni tekshirish natijalari bo‘yicha tasdiqlagan xulosada.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borish davomida: ⁵

20. voyaga yetmaganing turmush tarzi, aloqalari va niyati aniqlanadi;

21. voyaga yetmaganga huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xattiharakatlar sodir etishining oqibatlari tushuntiriladi;

22. voyaga yetmaganing huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xattiharakatlar sodir etishi sabablari va shart-sharoitlari aniqlanadi hamda ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar ko‘riladi;

23. voyaga yetmaganni huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xattiharakatlarni sodir qilishga jalb etayotgan shaxslar aniqlanadi va ularni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga doir chora-tadbirlar ko‘riladi;

24. voyaga yetmaganga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslar jalb etiladi;

25. voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar bilan o‘zaro hamkorlikda voyaga yetmaganni saqlash, tarbiyalash, unga ta‘lim berish, uning bandligi va dam olishini tashkil etish masalalari hal etiladi.

⁵ И. Исмаилов, М. Зиёдуллаев, Н.Исраилова, Ф.Азимова. Вояга етмаганлар назоратсизлиги ва ҳуқуқбузарликларининг олдини олиш: Ўқув-амалий қўлланма / Масъул муҳаррир И. Исмаилов. – Т.: Республика болалар ижтимоий мослашуви маркази

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oilalar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borish davomida:

26. oiladagi muhitni sog‘lomlashtirishga, ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarning bolalarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini bartaraf etishga doir tadbirlar amalga oshiriladi;

27. ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarga voyaga yetmaganlarni ta‘minlash, tarbiyalash va ularga ta‘lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik, bolalarning xulq-atvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatganlik yoxud ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘lganlik oqibatlarini tushuntiriladi;

28. oilani yashash joyiga borib ko‘rish, tavsiflovchi materiallarni o‘rganish, sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari, ta‘limni boshqarish organlari va ta‘lim muassasalari vakillari, boshqa shaxslar bilan suhbatlar o‘tkazish orqali ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarning turmush tarzi hamda niyati aniqlanadi;

29. ularga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslar jalb etiladi;

30. voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar bilan o‘zaro hamkorlikda voyaga yetmaganlarni saqlash, tarbiyalash, ularga ta‘lim berish, ularning bandligi va dam olishini tashkil etish masalalari hal etiladi;

voyaga yetmaganlarni ta‘minlash, tarbiyalash va ularga ta‘lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘layotgan ota-onalar yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta‘sir choralari qo‘llash to‘g‘risida tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlarga belgilangan tartibda takliflar kiritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi).
2. <http://press-service.uz/uz> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
3. <http://natlib.uz> (Alisher Navoiy Nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi).
4. <http://akadmvd.uz> (O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).
5. <http://ziyonet.uz> (ZiyoNET ta‘lim portali).
6. <http://utube.uz/ru> (Utube.uz ta‘lim videoportali).
7. <http://book.uz/> (Elektron adabiyotlar kutubxonasi).
8. <http://www.xs.uz> («Xalq so‘zi» gazetasi).